

---

## 4-MART—O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FAVQULODDA VAZIYATLAR VAZIRLIGI TASHKIL TOPGAN KUN



Xalqimizning tinchligi, osoyishtaligini o‘z halovatidan ustun deb bilgan, ko‘zlarida shijoat porlab, vujudlaridan kuch-g‘ayrat yog‘ilib turgan jasur va navqiron qutqaruvchilarni Favqulodda vaziyatlar vazirligi tashkil topgan kun munosabati bilan muborakbod etamiz.

Shu o‘rinda o‘z kasb bayramlarini nishonlayotgan Qo‘shtepa tumani Favqulodda vaziyatlar bo‘limi xodimlarini ham ana shunday g‘oyat sharafli, matonatli, ammo mashaqqatli vazifalarini ado etishlarida omad va muvaffaqiyat tilaymiz.

Qutqaruvchi – nafaqat insonlar, atrof-muhit, balki butun bir jamiyatni, xalqni o‘z jonini xavfu-xatarga qo‘ygan holda ofatdan omon olib chiqadi. Kerak bo‘lsa, o‘zgalar hayoti, xavfsizligi yo‘lida aziz jonini qurbon qiladi. Ular butun borlig‘i, vujudi bilan chinakam xaloskorlardir. Barcha qutqaruvchilarni chin qalbdan kasb bayramlari bilan muborakbod etamiz!

**[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)**

[Facebook](#),

2022-03-04 13:55:10